

YALPI HUDUDiy MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilda Xorazm viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 20 822,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yil bilan taqqoslaganda 102,3 % ga o'sdi. YaHM deflyator indeksi 2019- yil narxlariga nisbatan 110,1 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Xorazm viloyatining qo'shgan hissasi 3,6 % ga yetdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
		2019- yil	2020- yil	
	I. YaHM	18486,9	20822,3	102,3
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	17645,0	20207,7	102,3
	Mahsulotlarga sof soliqlar	841,9	614,6	102,0
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	17645,0	20207,7	102,3
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	8438,9	9795,3	102,9
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	3398,5	3873,9	103,5
	sanoat	2295,7	2536,9	103,6
	qurilish	1102,8	1337,0	103,3
	Xizmatlar	5807,6	6538,5	100,8
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1042,7	1139,6	94,9

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
		2019- yil	2020- yil	
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	1066,3	1173,1	101,4
	boshqa xizmat tarmoqlari	3698,6	4225,8	102,3

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 11 076,9 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,7 % ga yuqoridir.



Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va mutlaq o'sish sur'atlari



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,0 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,0 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 48,5 % ni, sanoat tarmog'i 12,6 % ni, qurilish 6,6 % ni va xizmatlar sohasi 32,3 % ni tashkil qildi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

		2019- yil	2020- yil
	I. YaHM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	95,4	97,0
	Mahsulotlarga sof soliqlar	4,6	3,0
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	47,8	48,5
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	19,2	19,2
	sanoat	13,0	12,6
	qurilish	6,2	6,6
	Xizmatlar	33,0	32,3
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,9	5,6
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,0	5,8
	boshqa xizmat tarmoqlari	21,1	20,9




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)


2019- yil





2020- yil



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 102,9 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 48,5 %), sanoatda – 103,6 % (12,6 %), qurilishda – 103,3 % (6,6 %), xizmatlar sohasida – 100,8 % (32,3 %) ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 94,9 % (5,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 101,4 % (5,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,3 % (20,9 %) dan iborat bo'ldi.



YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)




2020- yilda YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2020- yilda YaHM deflyatori indeksi 2019- yil narxlariga nisbatan 110,1 %ni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qurilishda – 117,3 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 112,8 % qayd etildi.



YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi
Statistika faoliyatini tashkil etish
va yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi
Nashr uchun mas'ul: E.Axmedov
Tel.: (62) 227-78-65